



PROCEDURE FOR FINANCING THE DEVELOPMENT FIELD

Jasur Usmonov Anvar ugli

Master's Student at the Banking and Finance Academy of
the Republic of Uzbekistan

E-mail: usmonovj511@gmail.com

Tel: 90 167-87-75

Abstract: This article examines the activities of organizations in the sphere of improvement in our country and the specific procedure for their financing, their expenses, as well as the procedure for reimbursement of these expenses by the state. Also, the funds allocated from the budget for the sphere of improvement were analyzed by year.

Keywords: time estimate, staffing schedule, acceleration of landscaping work, cemetery maintenance department, uncontrolled animal control department, internal road maintenance and repair department, outdoor lighting systems use department, drainage organization.

OBODONLASHTIRISH SOHASINI MOLIYALASHTIRISH TARTIBI

Jasur Usmonov Anvar o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

E-mail: usmonovj511@gmail.com

Tel: 90 167-87-75

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda obodonlashtirish sohasi tashkilotlarining umumiy faoliyati va ularni moliyalashtirishning o'ziga xos tartibi, ularning xarajatlari, shuningdek bu xarajatlarni qoplash tartibi hamda obodonlashtirish sohasi uchun budjetdan ajratilayotgan mablag'lar yillar kesimida tahlil qilingan.





Tayanch soʻz va iboralar: vaqtinchalik xarajatlar smetasi, shtat jadvali, koʻkalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, qabristonlarni saqlash uchastkasi, nazoratsiz hayvonlarni tutish uchastkasi, ichki yoʻllarni saqlash va taʼmirlash uchastkasi, tashqi yoritish tizimidan foydalanish uchastkasi, drenaj xoʻjaligi

ПОРЯДОК ФИНАНСИРОВАНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ

Аннотация: В данной статье рассмотрена деятельность организаций в сфере благоустройства в нашей стране и конкретный порядок их финансирования, их расходов, а также порядок возмещения этих расходов государством. Также были проанализированы средства, выделенные из бюджета на сферу благоустройства, по годам.

Ключевые слова: временная смета, штатное расписание, ускорение работ по благоустройству, участок по содержанию кладбищ, участок по неконтролируемому контролю за животными, участок по содержанию и ремонту внутренних дорог, участок по использованию систем наружного освещения, организация дренажа.

Kirish.

Mamlakatimizda obodonlashtirish sohasini rivojlantirishga katta eʼtibor qaratib kelinmoqda. Shaharlar, tuman markazlari, shahar posyolkalari qishloq aholi punktlariga zamonaviy qiyofa baxsh etish maqsadida, shu jumladan, respublika tumanlari va shaharlaridagi mavjud obodonlashtirish masalalari boʻyicha tashkilotlar negizida obodonlashtirish boshqarmalarini tashkil etish yoʻli bilan obodonlashtirishni yaxshilash yuzasidan izchil choralar koʻrilmoqda. Shu bilab birga, oxirgi 4 yilda shahar va tuman obodonlashtirish boshqarmalarining moddiy-texnik jihatdan yetarlicha taʼminlanmaganligi va jihozlanmaganligi, malakali kadrlar yetishmasligi, ularni moddiy ragʻbatlantirish va ijtimoiy taʼminlashning past darajada ekanligi, shuningdek, ushbu





sohada ta'sirchan jamoatchilik nazoratining yo'qligi sababli aholi punktlarini obodonlashtirish sohasida kompleks chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-iyundagi PQ-4351-son hamda 2021-yil 2-apreldagi PQ-5052-sonli qaroriga asosan obodonlashtirish boshqarmalarining kuch va resurslaridan oqilona foydalanish, ularning ishini optimallashtirish, qo'l mehnatini kamaytirish, shuningdek, obodonlashtirish sohasida ishlarni tashkil etishni takomillashtirishning asosiy vazifalari belgilab berilgan. Jumladan:

2020-2024-yillar davrida tuman va shahar obodonlashtirish boshqarmalarini maxsus texnika va mexanizmlar bilan jihozlash parametrlari qabul qilindi. Mazkur qarorlarga asosan 1 423 ta texnika va mexanizmlar xarid qilinishi belgilangan bo'lib shundan, 2020-2022-yillarda davlat budjeti mablag'lari hisobidan 1 039 ta texnika va mexanizmlar xarid qilindi. Ushbu texnikalarni xarid qilish uchun 374,9 mlrd.so'm mablag'lar yo'naltirildi.

Adabiyotlar sharhi.

Obodonlashtirish sohasini ijtimoiy jihatdan tahlil qilganda, uning ko'plab muhim aspektlari mavjud. Bu soha faqat infratuzilmani yaxshilash bilan cheklanmay, jamiyatning turmush sifatini oshirishga ham xizmat qiladi. Ijtimoiy jihatdan obodonlashtirish sohasi quyidagi asosiy omillarni o'z ichiga oladi:

1. Jamoat sog'lig'ini yaxshilash.

Obodonlashtirish faqat go'zal ko'rinishga ega bo'lishni emas, balki aholining sog'lig'ini mustahkamlashni ham nazarda tutadi. Masalan:

- yashil hududlar (bog'lar, xiyobonlar) inson salomatligini yaxshilashga yordam beradi. Ochiq havo va tabiiy o'simliklar nafaqat ekologik muhitni tozalaydi, balki stressni kamaytiradi, jismoniy faoliyatni oshiradi;





- jismoniy faoliyat uchun infrastrukturani yaratish. Yengil jismoniy mashqlar va sport faoliyatini amalga oshirish uchun maxsus joylar, masalan, sport maydonchalari va yugurish yo‘laklarini tashkil etish.

2. Ijtimoiy muammolarni hal qilish.

Obodonlashtirish orqali ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va turmush darajasini yaxshilash mumkin:

- xalqaro va mahalliy sharoitga moslashtirilgan infratuzilma: Aholining turli ehtiyojlarini qondiradigan infrastrukturani yaratish (barkamol maktablar, bolalar bog‘chalari, klinikalar) ijtimoiy adolatni ta’minlashga xizmat qiladi;

- kambag‘allikni kamaytirish. Obodonlashtirish, ayniqsa, qashshoq hududlarda yangi imkoniyatlar yaratish, toza suv va sanitariya tizimlarini yaxshilash orqali ijtimoiy farovonlikni oshiradi.

3. Jamiyatda integratsiya va jamoa ruhini yaratish.

Yashash muhiti va jamoat joylari odamlarga birgalikda vaqt o‘tkazish, o‘zaro aloqalar o‘rnatish imkoniyatini beradi:

- jamoat joylarining ahamiyati: Parklar, xiyobonlar va boshqa ijtimoiy tadbirlar uchun joylar ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu yerda odamlar bir-birini bilib olishadi, ijtimoiy tarmoqlarni kuchaytiradilar va birgalikda faoliyat olib boradilar;

- mahalla va jamoat faoliyatlari. Obodonlashtirish jamiyatni birlashtirish, ko‘proq madaniy va ijtimoiy tadbirlarni tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

4. Xavfsizlikni ta’minlash.

- obodonlashtirish sohasidagi yaxshilanishlar jamoat xavfsizligini oshirishga ham olib keladi;





- yoritilgan va toza ko'chalar. Yaxshi obodonlashtirilgan ko'chalar va maydonlar jinoyatni kamaytirish, xavfsiz muhit yaratish uchun muhim omillardir. Yaxshi yoritilgan joylar odamlarning o'zini xavfsizroq his qilishiga yordam beradi.

- transport va yo'l infratuzilmasi. Ko'proq va samarali transport tizimlari, piyodalar uchun qulay yo'laklar va xavfsiz yo'llar odamlarning bir-biriga yaqin bo'lishiga, shuningdek, jamoat transportining samarali ishlashiga olib keladi.

5. Tarbiyaviy va estetik yondashuv.

Obodonlashtirishning ijtimoiy jihati estetik va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi:

- estetik qiyofa. Obodonlashtirish jarayonida arxitektura va dizaynning ahamiyati katta. Yashash joyining go'zalligi, qulayligi va estetik ko'rinishi aholining psixologik holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, ularning farovonligini oshiradi;

- tarbiyaviy rol. Yashash joyidagi obodonlashtirish elementlari, masalan, ko'kalamzorlashtirish, toza va tartibli muhitlar, aholini mehr-muhabbat, mas'uliyat va hamjihatlikka o'rgatadi.

6. Atrof-muhitni himoya qilish.

Obodonlashtirish ekologik ahamiyatga ega:

- tabiatni saqlash va ekologiya: Yashil hududlar va bog'lar, atrof-muhitni himoya qilish orqali ekologik muvozanatni saqlashda yordam beradi. Bu, ayniqsa, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda muhim rol o'ynaydi;

- barqaror rivojlanish. Barqaror obodonlashtirish, tabiiy resurslarni tejash va ekologik muvozanatni saqlashga yo'naltirilgan strategiyalarni o'z ichiga oladi.

7. Turizmni rivojlantirish.

Obodonlashtirish turizmni rivojlantirishga ham xizmat qiladi:

- sayohat joylarini yaratish. Obodonlashtirilgan joylar, turistik maskanlar va sayohatchilar uchun jalb etuvchi joylarga aylanishi mumkin. Bu esa mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va yangi ish o'rinlarini yaratadi.





Obodonlashtirish sohasining ijtimoiy ahamiyati juda katta. Bu soha aholining hayot sifatini yaxshilash, ijtimoiy adolatni ta'minlash, xavfsizlikni oshirish, ekologik muvozanatni saqlash va jamiyatni rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Tadqiqot metodologiyasi.


Mazkur mavzuni yoritishda tahlili, induksiya, deduksiya, tizimli va kompleksli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatimizda obodonlashtirish ishlari tuman va shahar Obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi. Barcha obodonlashtirish tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga, mustaqil balansga, Iqtisodiyot va moliya vazirligining G'aznachiligida budjet va budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga ega.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 10-yanvardagi "Respublika aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4-son qarori bilan Obodonlashtirish sohasi tashkilotlari tarkibi, faoliyati, vazifa va funksiyalari belgilan berilgan. Tuman va shahar Obodonlashtirish boshqarmalari tarkibida hozirgi kunda quyidagi bo'linmalar faoliyat yuritmoqda:





1-rasm. Tuman va shahar Obodonlashtirish boshqarmalari tarkibiga kiruvchi muassasalar

Manba: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 1-apreldagi 91-son qarori ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Mazkur bo'limlarning obodonlashtirish sohasida belgilangan vazifalari quyidagilardan tashkil topgan:

- obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish – yo'llar, sun'iy inshootlarni, granit-marmar zinapoyalar va maydonchalarni hamda gazonlarni tasodifiy axlatlardan tozalash, hududlarga suv sepish, axlat qutilarni tozalash va yuvish, qorni supurish, qish vaqtida hududlarga qum sepish. Shuningdek, ko'kalamzorlashtirish sohasida belgilangan hududlarga ko'chat, gul, gazonlarni ekish, maysalar, daraxtlar (bir yillik, ko'p yillik, archali, bargli, mevali), yashil to'siqlarni parvarish qilish va ularga shakl berish hamda dov-daraxtlarni parvarish qilish bo'yicha agrotexnika tadbirlarini o'tkazish;





- qabristonlarni saqlash uchastkasi – qabristonlarni obod qilish, me'yorlar va qoidalarga muvofiq dafn etish joylari (qabristonlari) va qabr ustiga o'rnatilgan yodgorliklarni saqlash, mukammal va joriy ta'mirlash hamda ulardan foydalanish;

- ichki yo'llarni saqlash va ta'mirlash uchastkasi – tuman, shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko'chalari hamda ichki xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini, ularda joylashgan ko'priklar va yo'l o'tkazgichlarni hamda ko'chalar, yo'laklar qatnov qismining yo'l qoplamasi, bekat ko'tarmalari, yer osti o'tish joylari, ko'priklar, transport chorrahalari va yo'l o'tkazgichlar, yon bordyurlarni saqlash va joriy ta'mirlash;

- tashqi yoritish tizimidan foydalanish uchastkasi – yo'llar va ko'chalarning tashqi yoritish tarmoqlarini saqlash, mukammal va joriy ta'mirlash hamda ulardan foydalanish;

- drenaj xo'jaligi – drenaj xo'jaligini vertikal va gorizontaal quduqlar, ochiq va yopiq kollektorlar, sun'iy havzalar, yer osti va yomg'ir suvlarini haydaydigan nasos stansiyalari va favvoralarini saqlash, mukammal va joriy ta'mirlash hamda ulardan foydalanish bo'yicha boshqa ishlar amalga oshirish. Shu bilan birga, ariqlarni qazish, qoplamali va qoplamasi bo'lmagan turli chuqurlik va uzunlikdagi ariqlarni, quvurlarni cho'kindilardan tozalash, irrigatsiya tarmoqlarini ta'mirlash ishlarini bajaradi;

- nazoratsiz hayvonlarni tutish uchastkasi – nazoratsiz, shu jumladan egasiz itlar, mushuklar va yirtqich hayvonlarni veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya etgan holda tutish va veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limlariga olib kelish.

Shuningdek, mavsumiy talablarni hisobga olgan holda obodonlashtirish obyektlarini sanitariya jihatdan tozalash ishlarini ham amalga oshiradi.

Obodonlashtirish sohasi xodimlariga munosib mehnat sharoitlarini yaratish, ularni moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida quyidagi ustamalar belgilandi:





- Toshkent shahar hikimligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan obodonlashtirish boshqarmalari hamda viloyat markazlari obodonlashtirish boshqarmalari, viloyat bo'ysunuvidagi shahar va tuman obodonlashtirish boshqarmalari xodimlariga har oyda lavozim maoshining 15% miqdorida qo'shimcha ustamalar belgilandi;

- shahar, tuman Obodonlashtirish boshqarmalari xodimlariga har oyda qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining bir baravari miqdorida ovqatlanish uchun kompensatsiya pullari belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda PF-46-son "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga asosan Obodonlashtirish boshqarmalari faoliyati bo'yicha bir qancha vazifalar belgilab berildi. Bunda:

- 2022 – 2026-yillarda tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmalari tasarrufidagi ko'kalamzorlashtirish hududlariga sug'orish tizimlarini va suv chiqarish quduqlarini tashkil etish bo'yicha davlat dasturi qabul qilindi. Unga ko'ra respublikamizning shahar va tuman obodonlashtirish boshqarmalari tasarrufidagi ko'kalamzorlashtiriladigan maydonlarda davlat budjeti mablag'lari hisobidan jami qiymati 264,5 mlrd so'm hisobiga 1 561 km sug'orish tizimlari hamda 1031 dona suv chiqarish tizimlari hamda 1031 dona suv chiqarish quduqlarini tashkil etilishi belgilandi;

- 2022 - 2026 yillarda davlat budjeti mablag'lari hisobidan tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmalarini maxsus texnika va mexanizmlar bilan jihozlash davlat dasturi tasdiqlandi. Mazkur dasturga asosan respublikaning barcha shahar va tuman obodonlashtirish boshqarmalariga jami qiymati 386,1 mlrd.so'm mablag'lar hisobiga 487 ta zarur bo'lgan texnika va mexanizmlar xarid qilinishi belgilandi.

1-jadval





Mahalliy budjetdan 2022-2024-yillarda Obodonlashtirish sohasiga ajratilgan mablag'lar to'g'risida ma'lumot (mlrd.so'mda)

№	Soha nomi	2024-yil	2025-yil
1	Obodonlashtirish sohasi	4 402	4 526
2	Ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish va obodonlashtirish boshqarmalari moddiy texnikasini mustahkamlash xarajatlari	161	169,5

Manba: *Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-2027-yillar uchun budjetnomasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi*

Respublikamizda 2024-yilda obodonlashtirish sohasiga ajratilgan mablag' 4 402 milliard so'mni tashkil etadi. 2025-yilda esa bu mablag' 4 526 milliard so'mga yetishi kutilmoqda, bu esa 2024-yilga nisbatan 3 foizga oshganligini bildiradi. Shu bilan birga, ushbu o'sish, obodonlashtirish sohasining rivojlanishiga qaratilgan davlat dasturlarini amalga oshirish, infratuzilmani yaxshilash, yangi yashash joylarini qurish va mavjud hududlarda jamoat joylarini obodonlashtirish kabi masalalarda qo'shimcha mablag' sarflanishini ko'rsatadi. 2025-yilda bu sohada qo'shimcha resurslar ajratilishi, shuningdek, o'zgarishlarni amalga oshirishda yangi yondashuvlar va innovatsiyalarni kiritishga imkoniyat yaratadi (Budjetnoma, 2025).

Ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish va obodonlashtirish boshqarmalari moddiy texnikasini mustahkamlash uchun 2024-yilda 161 mlrd.so'm mabalg' ajratilgan bo'lib, 2025-yilda 169,5 mlrd.so'm mabalg' ajratilishi nazarda tutilmoqda. Ya'ni, bu ajratilgan mablag'ning 5 foizga oshishi obodonlashtirish va yashil hududlarni kengaytirish borasidagi sa'y-harakatlarning ortishi va mamlakatning ekologik barqarorligini ta'minlashga qaratilgan strategiyaning samarali amalga oshirilishini ko'rsatadi.





Obodonlashtirish tashkilotlarining asosiy ko'rsatkichlari

№	Nomi	2023-yil	2024-yil	2025-yil
1	Obodonlashtirish tashkilotlari soni, birlik	231	231	231
2	Shtat birliklari soni (ming kishi)	65,7	65,7	65,7
3	Jami saqlash xarajatlari, mlrd so'm	4 737	4 401,6	4 142,3
4	<i>shundan, ish haqi xarajatlari, mlrd so'm</i>	2 329	2 488	2 997,2

Manba: *Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-2027-yillar uchun budjetnomasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi*

Mamlakatimizda boshqa sohalar singari obodonlashtirish sohasini rivojlantirish borasida ham keng ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2025-yilda Obodonlashtirish sohasi tashkilotlari 231 tani tashkil etishi va ularda 65,7 mingdan ortiq shtat birliklari faoliyat yuritishi hamda sohaning joriy xarajatlari uchun 4,5 trln so'm ajratilishi ko'zda tutildi (Budjetnoma, 2025).

Shu jumladan, obodonlashtirish sohasi tashkilotlarining 2025-yilgi ish haqi va unga ajratmalar uchun 3 trln so'mga yaqin mablag' ajratilishi rejalashtirilmoqda.

2025-yilda Obodonlashtirish sohasida quyidagilarni amalga oshirish taklif etilmoqda:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi tuman va shahar hokimliklariga qarashli tuproq yo'llarni qum-shag'alli yo'llarga o'tkazish uchun Davlat budjetidan ajratiladigan mablag'larni har bir shahar va tuman obodonlashtirish boshqarmalariga mablag'lar





rejalashtirilayotganligi sababli ushbu tadbirni ajratiladigan mablag'lar doirasida amalga oshirishga o'tkazish;

- Toshkent shahar hokimligi "Toshshaharnur" DUK to'liq budget mablag'lari hisobidan faoliyat yuritayotganligi, Davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanish maqsadida "Toshshaharnur" davlat unitary korxonasi negizida "Toshshaharnur" davlat muassasasini tashkil etish.

Hozirgi kunda "Toshshaharnur" DUK sifatida budgetdan mablag' oluvchi tashkilot hisoblanib, unga ajratilgan mablag'lar xarajatlar smetasining bir satrida rejalashtirilgan holda moliyalashtirilib kelinmoqda.

Xulosa va takliflar.

Obodonlashtirish sohasini moliyalashtirish tartibini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur yo'nalish hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Obodonlashtirish tadbirlari — yo'l va ko'chalarni ta'mirlash, ko'kalamzorlashtirish, ichimlik suvi va kanalizatsiya tizimlarini yangilash, jamoat joylarini obod qilish — nafaqat infratuzilmaviy o'zgarishlarni, balki aholining turmush sifati va farovonligini oshirishni ta'minlaydi. Shu bois ushbu sohani samarali moliyalashtirish davlat moliya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi zarur.

Hozirgi sharoitda O'zbekistonda obodonlashtirish ishlari asosan davlat va mahalliy budget mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Biroq mavjud moliyalashtirish mexanizmlarida mablag'larning yetarli emasligi, ularni taqsimlashda shaffoflikning to'liq ta'minlanmagani, ayrim hollarda rejalashtirish va nazorat tizimining sustligi kabi muammolar uchrab turadi. Bu esa ayrim loyihalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilmasligiga olib kelishi mumkin.

Shundan kelib chiqib, quyidagi tajribalarni qo'llash mumkin bo'ladi:





1. Obodonlashtirish sohasini moliyalashtirishda o'rta va uzoq muddatli strategik rejalashtirish tizimini joriy etish, bunda har bir hudud kesimida ustuvor yo'nalishlar aniq belgilab olinib, mablag'larni samaradorlik ko'rsatkichlari asosida taqsimlash;

2. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish (ya'ni, xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilish orqali budjetga tushadigan yukni kamaytirish va infratuzilma loyihalarini tezroq amalga oshirish mumkin);

3. Moliyalashtirish jarayonida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish, bunda raqamli platformalar orqali mablag'larning ajratilishi va sarflanishi yuzasidan ochiq ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

4. Mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish orqali hududlarning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib, qo'shimcha moliyaviy manbalarni safarbar etish obodonlashtirish ishlarining barqarorligini ta'minlash;

5. Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va aholining bevosita ishtirokini ta'minlash (ya'ni, fuqarolar tashabbuslari asosida amalga oshiriladigan loyihalar mablag'lardan oqilona foydalanishga va ehtiyojlarga mos qarorlar qabul qilinishiga xizmat qiladi);

Xulosa qilib aytganda, obodonlashtirish sohasini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish hududlar infratuzilmasini rivojlantirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda aholining hayot sifatini oshirishning muhim omilidir. Moliyaviy resurslardan samarali va maqsadli foydalanish, shuningdek, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali ushbu sohaning barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi.





2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining “Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Adliya vazirligi tomonidan 2014-yil 15-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan buyrug‘i.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 1-apreldagi “Obodonlashtirish xodimlarini moddiy rag‘batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 91-son qarori.

4. O‘zbekiston “O‘zkommunxizmat” agentligi va Moliya vazirligining 2009-yil 29-iyuldagi “Tuman va shahar Obodonlashtirish boshqarmalari xodimlarining me‘yorlangan sonini belgilash to‘g‘risida”gi 1989-son qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil uchun budjetnomasi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 10-yanvardagi “Respublika aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4-son qarori.

